



LINGVISTIK ATAMALARNING TAVSIFI XUSUSIDA

D.A.Rustamova

Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 44 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1157 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS lingvistik atama, terminologiya, tavsif, sinonimiya, polisemiya, tasnif, standartlash, lingvistik lug'at.	Mazkur maqolada lingvistik atamalar tizimi va ularning tavsif xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda lingvistik terminlarning struktur, semantik va funksional xususiyatlari aniqlanib, ularni tasniflash mezonlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, atamalar o'rtasidagi sinonimiya va polisemiyaning terminologik izchillikka ta'siri yoritilgan. Tavsifiy va taqqoslamali metodlar asosida lingvistik atamalar tizimidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni standartlash va yagona izoh bilan ta'minlash zarurligi asoslab berilgan. Maqola lingvistik terminologiyani mukammallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

KIRISH

Bugungi tilshunoslikda atamalar tizimini chuqur o'rganish va ularning tavsifiy xususiyatlarini aniqlash dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki lingvistik atamalar nafaqat ilmiy tafakkur vositasi, balki tilshunoslik fanining rivojlanish darajasini belgilovchi muhim birliklardir. Har bir tilshunoslik maktabi va yondashuv o'zining terminologik apparatini shakllantirgan bo'lib, ularning izohlanishi va qo'llanilishi lingvistik konsepsiyalarning aniq va ravon ifodalanishini ta'minlaydi. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, so'zning lingvistik birlik sifatida grafik, fonetik, grammatik, semantik va struktur mezonlar asosida izohlari farqlanadi (N.M. Shanskiy). Bunda, masalan, fonetik shakllanganlik, semantik valentlik, leksik va grammatik o'ziga xoslik asosiy belgi sifatida ajratib ko'rsatiladi. Zamonaviy lingvistikada terminlarning sinonim, omonim, polisemantik, dublet va shartli sinonim kabi turlarini ajratish terminologik lug'atlarni tuzishda ham muhim ahamiyat kasb etadi (O.D. Adonina, B.D. Sirenov). Ayniqsa, A.Hojiyevning fikricha, terminlar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatish ularning ma'nosini aniq anglashga yordam beradi. Ushbu maqolada lingvistik atamalarning tavsifi, ularning tasnifi va izohlanish prinsiplari o'rganiladi. Maqola davomida terminlarning lug'atlarda qanday berilishi, ularning semantik va struktur farqlari, shuningdek, tasnifiy mezonlari tahlil qilinadi. Shu orqali lingvistik atamalar tizimini yanada mukammal va aniq shakllantirish masalasiga ilmiy yondashuv taqdim etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Lingvistik atamalar masalasi bo'yicha bir qator olimlar tomonidan muhim tadqiqotlar olib borilgan. N.M. Shanskiy o'z ishlarida so'z va termin o'rtasidagi farqni aniqlab, ularning grafik, fonetik va grammatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. A.Hojiyev esa lingvistik terminlarning izohlanishida ularning o'zaro bog'liqligini va mazmunini aniqligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. O.D. Adonina va B.D. Sirenov terminlarning sinonimiya, omonimiya va polisemiya kabi xususiyatlarini o'rganib, terminologik lug'at tuzishda bu holatlarni hisobga olish muhimligini ko'rsatgan. Ularning ishlari lingvistik atamalarni tasniflash va izohlash mezonlarini aniqlashga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda terminologiyani izchil va standart shakllarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar lingvistik atamalar tizimini boyitishga xizmat qilmoqda.

METODLAR

Mazkur tadqiqotda lingvistik atamalarni tavsiflashda tavsifiy (deskriptiv) va taqqoslamali (komparativ) usullar asosiy metod sifatida qo'llanildi. Tavsifiy usul orqali atamalarning struktur, semantik va funksional xususiyatlari aniqlab chiqildi. Taqqoslamali metod yordamida turli tilshunoslik manbalarida uchraydigan atamalar o'zaro solishtirildi va ularning umumiy hamda farqli jihatlari belgilandi. Shuningdek, lingvistik lug'atlar va terminologik qo'llanmalarda mavjud bo'lgan tasnifiy mezonlar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda

statistik va kontekstual yondashuvlar ham qo'llanib, atamalarning qo'llanish chastotasi va matndagi o'zni o'rganildi. Natijada lingvistik atamalar tizimini shakllantirish va ularni aniq belgilash bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarildi.

NATIJALAR

Tadqiqotning natijalariga ko'ra, yondashuvga qarab, so'zni izohlashning turli mezonlari farqlanadi: grafik, fonetik, grammatik, semantik, struktur va boshqalar. Masalan, N.M.Shanskiy so'zdagi quyidagi asosiy xususiyatni til birligi sifatida ajratib ko'rsatadi: 1) fonetik shakllanganlik; 2) semantik valentlik; 3) bir urg'uga egalik; 4) leksik va grammatik o'ziga xoslik; 5) tovush va ma'noning doimiyligi; 6) ma'noning yangilanishi; 7) yaxlitlik va bir xillik; 8) so'z birikmalarida qo'llanishning mustaqil qo'llanishdan ko'pligi; 9) izolyatsiyalanganlik; 10) nominativlik. Mazkur belgilardan so'zning izohini boshqa birliklardan farqlash uchun minimum sifatida 1) fonetik shakllanganlik; 2) semantik valentlik; 3) bir urg'uga egalik; 4) leksik va grammatik o'ziga xoslik kabi belgilarni ajratadi¹.

B.D.Sirenovning fikricha, termin semantik yoki ensiklopedik tavsifida leksikografik pometaning ahamiyati katta. Pometalar qisqaligi bilan lug'at maqolasining ixchamligiga olib kelsa, shu qisqa shaklida aniq axborot(hamma lug'at maqolasida bir xil axborot)ni tashiydi.

O.D.Adonina S.V.Grinyevga asoslangan holda polisemantik, omonim, sinonim terminlarni ajratadi. O.D.Adoninaga ko'ra, **polisemantik terminlar** sifatida o'zaro semantik bog'liqlikka ega bo'lgan, bir sohada ikki va undan ortiq ma'no bildiruvchi terminlar tushuniladi. Bu terminlarning asosiy semasi umumiy bo'lib, semantik farq semantik periferiyada codir bo'ladi. **Omonim terminlar** esa bir yoki boshqa sohaga oid terminlar bo'lib, o'zaro yaqin ma'noga ega bo'lmaydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ularda ma'no yaqinligi yoki umuman mavjud emas, yoki asosiy semasida emas, balki ikkinchi darajali semada uchraydi². **Dublet termin** bir tilga mansub turli shakliga ega bo'lgan yoki turli tilgan mansub, turli ma'noli absolyut sinonim termin sanaladi. Turli tildagi dubletlarning hosil bo'lishiga ayni tilda o'z va o'zlashma qatlamgaoid terminning bir vaqtda parallel qo'llanishidan kelib chiqadi³.

Dublet terminlarning so'z-termin va birikma-termin kabi ko'rinishlari uchraydi. Masalan, iqtisod sohasi terminlarida quyidagi dubletlar uchraydi:

- 1) *apport / part* (vznos, ulush);
- 2) *actifs / patrimoine* (iqtisodiy birlikka teng keluvchi boylik va pul vositalari birligi);
- 3) *capital circulant / capital roulant* (aylanma kapital);
- 4) *banque des banques / banque centrale* (markaziy bank);
- 5) *apport en numeraire / apport d'argent* (vznos, ulush, naqd t o'lov).

¹ Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М., 1972. – С. 11.

² Адонина О.Д. Лингвистическая характеристика экономической терминосистемы современного французского языка (на материале французской терминографии): Автореф: диссер. канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 20 с. – С.9.

³ Адонина О.Д. Лингвистическая характеристика экономической терминосистемы современного французского языка (на материале французской терминографии): Автореф: диссер. канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 20 с. – С.10.

Shartli sinonim terminlar esa bir xil bo'lmagan, ammo o'xshash ma'noga ega bo'lgan terminlarini o'z ichiga oladi. Har xil tasnif, turli ilmiy maktablar nazariyasi va yondashuvlarga qarab bir tushunchaning turli tomonlarini aks ettiruvchi atamalar, shuningdek, biri ikkinchisidan ma'no jihatidan biroz kengroq bo'lgan atamalar shartli terminlardir. Bu kabi birliklarning mavjudligi ma'lum sharoitda ularni ekvivalent sifatida ishlatishga imkon beradi.

Lingvistik ensiklopedik lug'atlarda bunday terminlarning berilishi muammosiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq. Odatda, sinonim va dublet terminlar terminologik lug'atlarda "ayn." pometasi bilan ko'rsatiladi. A.Hojiyev " O'zbek tili tilshunoslik terminlari lug'ati"da bu tamoyilni quyidagicha izohlaydi: "Ayrim terminlar mazmuni yoki qandaydir bir xususiyati bilan boshqa termin yoki terminlarga aloqador bo'lishi mumkin. Bunday aloqadorlikni ko'rsatish shu terminlar bildiradigan lingvistik tushunchalarning mohiyatini aniq va oson tushunishga yordam beradi. Lug'atda terminlarning ana shunday aloqadorligi maxsus belgilar bilan k o'rsatildi. Bular quyidagilar: ayn. (aynan), q. (qarang), qiyos. (qiyoslang), zid. (ziddi). **Ayn.** belgisi terminning havola qilinayotgan (ayn. belgisidan so'ng kelayotgan) termin bilan aynan bir xil ma'noli ekanini bildiradi va shu terminning asosiy variant emasligini, asosiysi **ayn.** belgisidan keyingi termin ekanligini k o'rsatadi.

KATTA HARF –ayn. Bosh harf.

TASVIRIY SHAKL – ayn. Analitik shakl. **Q.** belgisi shu terminga aloqasi bo'lgan terminlar uchun tuzilgan lug'at maqolasiga qarashga undaydi. Bu terminlar uchun tuzilgan lug'at maqolasiga qarash bilan izohlanayotgan terminning mazmunini, u bildiradigan lingvistik tushunchaning mohiyatini oson, aniq va to'la tushunish imkonini tug'iladi. Mas., sof bog'lama terminiga tuzilgan lug'at maqolasi bilan shu maqolada h. belgisi bilan k o'rsatilgan bog'lama termini uchun tuzilgan lug'at maqolasini qiyoslab ko'ring"⁴. Quyida o'sha lug'at maqolalarini keltiramiz:

BOG'LAMA. fe'l bo'lmagan so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l. Mas., *Tolib rassom bo'ldi, Tolib rassom bo'lyapti, Tolib rassom bo'lmoqchi* gaplarida *b o'l* yordamchisi rassom so'zi bilan qo'llanib, mayl, zamon, shax-son ma'nolarining ifodalanishi uchun xizmat qilaypti. Bog'lama vazifasini bajaruvchi birlik o'z leksik ma'nosini qisman saqlashi yoki faqat bog'lama vazifasini bajarishi mumkin. Shunga ko'ra, bog'lamaning ikki turi farqlanadi: 1) sof bog'lama (q.), 2) yarim mavhum bog'lama (q.).

SOF BOG'LAMA. leksik ma'nosini yo'qotgan, sof grammatik vazifa bajaruvchi bog'lama. Mas., *edi, ekan t o'liqsiz fe'llari...* **Q.** Bog'lama⁵.

Demak, **q.** belgisi ishorasida bog'lama termini lug'at maqolasiga qarab, avvalo, bog'lama va uning turlari haqida tasavvur hosil qilinadi. Natijada sof bog'lamaning mohiyatini tushunish osonlashadi. O'zaro antonim bo'lgan terminlar ma'nosini bir-biriga qiyoslab ko'rish ham har bir termin ifodalaydigan til hodisasining mohiyatini to'g'ri va aniq tushunishga yordam beradi. Shu sababli o'zaro antonim bo'lgan terminlarning har biri uchun tuzilgan lug'at maqolasida **zid.** belgisi bilan uning antonimi keltiriladi⁶.

Bu kabi izoh, odatda, terminologik lug'atga tegishli. Lekin antonim, sinonim va dutlet terminlar ensiklopediyalarda ham shu usulda izohlanishi va o'zaro havola berilish mumkin. Havolalar va ularning lug'at strukturadagi ahamiyati quyida alohida tahlil qilinadi.

A.M.Axmetbekova lingvistik atamalar lug'atining minimal mikrotuzilmasining ikki shaklda taqdim etilishi mumkinligini ta'kidlaydi:

1. Lemma – Ta'rif – Misollar.
2. Lemma – o'zaro bog'liqlik.

Biroq lingvistik atamalar lug'atining mikrotuzilma xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar ko'lamini kengaytirish, lug'at maqolasi tarkibiy qismini murakkablashtirish, ularni yangi tavsiflar bilan boyitish, rivajlantirish va turli xildagi axborotlar bilan informativligini oshirishga moyillik kuchli⁷.

S.D.Shelov, L.V.Richkova terminologik lug'at va spravochniklarning yangi tipi haqidagi maqolasida yozilishicha, mualliflarning nuqtai nazariga ko'ra kompleks izohli-ensiklopedik va lingvistik xarakterga ega bo'lgan N.T.Bunimovich va b. muallifligidagi

lug'at maqolasining o'ziga xos, boshqa shu kabi nashrlardan farq qiluvchi belgisi sifatida ba'zi lug'at maqolasida illyustrativ misollarning mavjud emasligi hamda ba'zi bir mashhur atqli otlarning (Masalan, bir qator dinlarning asosiy arboblarning nomlari: Budda, Masih, Yahyo) kiritilishi lug'atning ensiklopedik xususiyatini oshiradi⁸. Demak, terminlarning izohlanishida izohli-ensiklopedik va lingvistik xarakterga ega bo'lgan lug'atlarda terminning izohlanishi lingvistik terminlar lug'atidan biroz farqli b o'lishi kuzatiladi.

S.D.Shelov va L.V.Richkovaning yozishicha, G.V.Galevskiy, L.V.Mauer, N.S.Jukovskiy hammuallifligidagi fan va texnika lug'ati⁹ning kirish qismida mazkur lug'atning fan va texnika bo'yicha (yana uchta keng qo'llanishdagi tillarda) barcha terminlarning qamrab olingani da'vo qilingan bo'lsa-da, mazkur lug'at bunday talabga javob bermaydi. Lug'at mualliflari mazkur nashrdan faqat ot so'z turkumiga mansub atamalarning qamrab olinganini aytgan. Shu asosda lug'at so'zligi chegaralangan. Mazkur lug'atdan ingliz tilidagi bir necha terminlar izohini keltiramiz:

Turing algorithm[Turing-Algorithmus m] mat.AlgorithmTyuringa.

Ko'rinadiki, lug'at maqolasi tuzilishi juda qisqa; termin, uning o'qilishi va qisqa izohi berilgan. Shunga ko'ra, mazkur lug'atni nomenklatura (nomlovchi termin)lar lug'ati deb baholash mumkin.

Aytmoqchi bo'lganimiz, terminologik lug'at maqolasida terminning (qisqa yoki keng) izohlanishi muallif maqsadi va foydalanuvchiga mo'ljallanishiga qarab belgilanadi.

P.N.Denisovga ko'ra, lug'at birligi tavsifi standart, so'zni tejash tamoyiliga amal qilingan, oddiy, sodda, to'liq va samarali bo'lishi lozim.Tadqiqotchining fikricha, lug'at maqolasida semantizatsiya (1) lug'at (adresati)ning m o'ljallanishi; (2) lisoniy va (3) nolisoni parametrlarga asosan amalga oshiriladi¹⁰.

Mo'ljallanishiga ko'ra lug'at bir yoki bir necha auditoriyaga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Terminlarni tavsiflash tamoyillari ham shunga ko'ra aniqlanadi. Masalan, maktab o'quvchilariga mo'ljallangan terminologik lug'at maqolasi yoki termin tavsifi bilan akademik lug'atdagi tavsif tubdan farq qiladi. Lug'at maqolasi tuzilishi, axborotning ko'p/kamligi, tavsif uslubining sodda yoki yuqori ilmiyligi lug'at adresatiga moslanadi. *Nolisoni parametrlar* lug'atning ijtimoiy, psixologik va semantik xususiyatlari bo'lib, bu belgilar ham lug'at maqolasi tuzilishga ta'sir ko'rsatadi. Lisoniy belgi esa termin tavsifida eng asosiy parametr sanaladi: bu tavsif birligi (darajasi), tavsif aspekti, tavsif yo'nalishi, material va tavsif tili qamrovi bilan izohlanadi.

Soha ensiklopediyasi tuzish tajribasini o'rganar ekanimiz, K.N.Dubrovnaning "Bibliya frazeologizmlari ensiklopedik lug'ati"ni tuzishning asosiy tamoyillari haqidagi maqolasi e'tiborimizni tortdi. K.N.Dubrovnaning ta'kidlashicha, M.I.Mixelson, V.I.Dal, M.G.Ashukin, V.P.Berkov, V.M.Mokienko, S.G.Shulejkova taromonidan Bibliya frazeologizmlari lug'atlari tuzilgan va nashr etilgan. Ammo bu ishlarda Bibliyadagi sintaktik oborotlar turli nashrlarda tarqoq holda uchraydi. Shu sababli muallif "Bibliya frazeologizmlari ensiklopedik lug'ati"ni tuzishni dolzarb deb hisoblaydi. K.N.Dubrovina mazkur lug'atning asosiy konsepsiyasini quyidagicha tavsiflaydi:

«Ushbu lug'at, an'anaviy lug'atlarda bo'lganidek, ekspressivlik, hissiy va baholovchi xususiyatlarga ega, majoziy ma'no (metaforik, ramziy, allegorik, majoziy) kasb etuvchi, barqaror, nutqda qo'llanadigan iboralarini o'z ichiga oladi.

Ular tuzilishiga ko'ra ular ikki guruhga bo'linadi:

1. Nopredikativ iboralar (frazeologik birlik bilan bog'langan so'z birikmalari): *fil suyagi minorasi, adashgan o'g'il, Bobil pandemiyasi, echki, yovuzlik ildizi, er yuzini yo'qotish* va hokazo.

2. Predikativ iboralar (maqol yoki aforistik shaklda axloqiy nasihat, k o'rsatma, ogohlantirish, taqiq, tilak kabilarni ifodalovchi gaplar): Несудити себе кумира; Несудите, да несудимы будете; Не мечите бисер перед свиньями; Не хлебом единым жив человек; Взятые меч – от меча и погибнут (*O'zingga kumir yasama. Hukm qilmanglar, hukm qilinmaysiz. Cho'chqalar oldiga marvarid*

⁴ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 5.

⁵ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 6.

⁶ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 1997. – 164 б. – Б. 6.

⁷ Akhmetbekova A.M. Microstructure features of dictionaries of linguistic terms. Life Science Journal 2014. 11(6): 491-495. <http://www.lifesciencesite.com>. (Мурожаат санаси: 25.07.2023)

⁸ Шелов С.Д., Рычкова Л.В. Об одном новом типе терминологических словарей и справочников / Русский язык в научном освещении. № 2 (34). – 2017. – С. 250-273. // <https://rjano.ruslang.ru/archive/2017-2/250-273> (Мурожаат санаси: 25.07.2023)

⁹ Галевский Г.В., Мауэр Л.В., Жуковский Н.С. Словарь по науке и технике (Английский. Немецкий. Русский.). – М., 2003.

¹⁰ Денисов П.Н. Основные проблемы теории лексикографии. Автореф. диссер. докт. филол. наук. – Москва, 1976. – 46 с. – С.10.

tashlamang. Inson faqat non bilan yashamaydi. Qilich olganlar qilichdan halok bo'ladilar)"¹¹.

Ensiklopediya so'zligi yoki lug'at maqolasi bosh so'zi sifatida antroponimlar (Adam, Eva, Kain, Noy, Avraam, Solomon, Irod, Xam, Iuda, Pilat), geografik joy nomlari (Vavilon, Ierusalim, Vifleem, Nazaret, Ierixon, Iordan) kiritilmagan bo'lsa-da, mazkur birliklar o'shalar bilan bog'liq frazeologizmlar ishtirok etgan lug'at maqolalari tarkibida uchraydi. Lug'atda faqat Bibliyada qo'llangan, zamonaviy rus tilida qo'llanuvchi iboralar emas, balki eskirgan iboralar (*взыскующие града, вопиять гласом велиим, положить (возложить) руку на плуг (на рало), предоставить мёртвым погребать своих мертвецов, сосуд скудельный, стомаха ради; На реках вавилонских седухом и плахбом; Смирение пачегордости*) ham kiritilgan. Chunki bu kabi birliklar o'tgan asrda faol bo'lgan: turli badiiy janrlarda qo'llangan. Bundan tashqari, ushbu Bibliyada uchraydigan uslubiy bo'yqoqdor (ijobiy va salbiy) birliklar semalari lug'atda neytral ifodalangan. Bunday o'zgarish ko'pincha desakralizatsiya jarayoni bilan birga amalga oshadi. Shunday qilib, ushbu lug'atning asosiy vazifasi Bibliyada uchraydigan frazeologik birlik uchun eng to'liq ma'lumot, asosan, lingvistik ma'lumotlarni taqdim etishdir¹². Ko'rinib turibdiki, muallif ensiklopedik lug'at deb atalgan lug'atning asosiy vazifasi o'laroq lingvistik ma'lumotlarni berish belgilangan.

Demak, ensiklopediyalarda lingvistik ma'lumotlar berish an'anasi ham mavjud.

E.V.Juchkovaning rus tilidagi terminografiyada ensiklopedik tipdagi lug'at haqidagi maqolasi ham e'tiborimizni tortadi. Tadqiqotchi izohli va ensiklopedik lug'atning farqini o'ziga xos usulda asoslaydi: "Darhaqiqat, izohli lug'atning vazifasi so'zlarning mazmun-mohiyati, ularning shakli va ma'nolarini tavsiflashdan iborat bo'lib, izohli lug'atdagi maqola janri tavsif, talqin yoki ta'rif bo'lsa, ensiklopedik lug'atda voqelik tasvirlanib, undagi ma'lumotlarni taqdim etishda qo'llanuvchi janr esa lug'at maqolasidir"¹³. Uning fikriga ko'ra, til birliklarining semalarini tavsiflash usullari ham har xil: umumiy lug'atdagi talqin hech qachon predmetning haddan tashqari ortiqcha tavsifini o'z ichiga olmaydi, "filologik" xususiyatga ega bo'lsa, ensiklopedik lug'atdagi so'zning tavsifi (talqini) esa minimal filologik xususiyatga ega. Ensiklopedik lug'at maqolasining vazifasi ko'rsatilgan voqelikni so'z vositasida imkon qadar to'liq tasvirlash va belgilashdir¹⁴.

Soha terminografiyasida ensiklopedik lug'atning ahamiyatini baholash qiyin, chunki bu lug'atning o'zni nihoyatda katta: ularni birmabir sanashga ehtiyoj bo'lmasa kerak. Masalan, qishloq xo'jaligi sohasiga oid ham umumiy, ham maxsus ensiklopediyalar nashr etilgan. Yoki psixologiyaga oid lug'atlarining 44 foizini terminologik lug'atlar tashkil etgan. Bunday kelib chiqadiki, psixologiyaga oid terminlar haqida ko'proq ma'lumot berish emas, balki mazkur terminning ma'nosini izohlash ahamiyatli. Demak, bir sohaga oid terminlarning lug'atini yaratishda (tabiiyki, lug'at maqolasini ham) soha terminlari xususiyatidan kelib chiqiladi: ayrim soha terminlari uchun ensiklopediyalar zarurati bo'lsa, ayrim soha terminlari faqat nazariy tavsif va izohni talab qiladi. Masalan, psixologiyada turli maktablar ayni bir tushunchani turlicha sharhlaydi, baholaydi. Bunday holatda ko'proq ensiklopediyalar emas, balki bir muallif tomonidan yaratilgan izohli terminologik lug'atlar paydo bo'ladi.

E.V.Juchkovaning ma'lumotiga ko'ra, ensiklopedik lug'atlarni sifatiga ko'ra tahlili shuni ko'rsatadiki, ensiklopediyalarning 63 foizini umumiy emas, balki maxsus ensiklopediyalar tashkil etadi. Tor sohaga ixtisoslashgan ensiklopediyalar esa 36 foiz. Psixologiyaga oid terminografiyada ko'p sohali lug'at tuzish maqsadga muvofiq ko'rilmaydi, chunki psixologiya terminologiyasining o'zi keng qamroqli va geterogen.

Bundan kelib chiqadiki, ensiklopedik lug'atlarni tuzish soha xususiyatidan kelib chiqadi. Psixologiyaga oid ensiklopedik lug'atlarning xususiyatini ikki katta nashr – katta psixologiya ensiklopediyasi hamda psixoanalitik termin va tushunchalar lug'atini qiyosiy tahlil qilamiz.

B.D.Sirenov boshqa olimlardan farqli ravishda lug'at strukturasi uchga: mega struktura, makro struktura va mikro strukturaga bo'ladi. **Lug'at mega strukturasini** "so'z boshi", "Kirish", "Lug'atdan foydalanish to'g'risida"gi maqolalar, "Shartli qisqartmalar ro'yxati", "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" va Lug'at korpusi (Asosiy qism), grammatik ocherk, geografik ob'ektlar ro'yxati kabi qismlardan iborat. Lug'atning asosiy qismidan tashqari barcha tarkibiy qismlar ilmiy-yordamchi apparatdir. Xorijiy leksikografiyada lug'at uchta yirik blokka bo'lingan – front matter (kirish qismi), middle matter (o'rta qismi) lug'at korpusi hamda back matter (yakuniy qismi) bo'lib, bu qismlarni "mega struktura" nomi ostida birlashtirish mumkin. **Makro struktura lug'at** korpusining umumiy tuzilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari va lug'atning asosiy qismi bilan bog'liq bir qator (lug'at so'zligini shakllantirish tamoyillari, lug'at maqolasida so'zlarning lug'aviy shakllarini joylashtirishga oid savollar, dialektizmlar, terminologik va onomastik leksika, me'yoriylik tamoyiliga rioya qilish va bosh so'zning chastotali xususiyatlarini hisobga olish) leksikografik muammolarni hal qiladi¹⁵.

B.D.Sirenovning fikricha, **"Lug'at mikro strukturasini** lug'at maqolasini lug'at makro strukturasi bilan farqli ravishda (murakkab tizim doirasida) mustaqil, alohida tizim sifatida tuzish muammolarini o'z ichiga oladi. Bunga lug'at maqolasining formati, tarkibining hajmi, lug'atda tavsiflangan til birligi haqidagi turli xil ma'lumotlarni taqdim etish usuli (etimologik, ensiklopedik, semantik, fonetik, grammatik, derivativ, stilistik, illyustrativ va boshqalar) kiradi"¹⁶. Olimning ta'kidlashicha, lug'at maqolasi istalgan lug'atning asosiy tashkiliy unsuri sanaladi. Lug'at maqolasi yaxlit bo'lishi yoki qismlarga bo'lingan holda shakllantirishi mumkin. Lug'at maqolasi strukturasi binar: u bosh so'z va bosh so'zni tavsiflovchi qismdan tashkil topadi (Boshqa manbalarda esa lug'atning chap tomoni va o'ng tomoni deb ajratilishini kuzatamiz).

E.V.Juchkova ensiklopediyalarni qiyosiy tahlil qilish uchun quyidagi parametrlarni taklif qiladi:

- 1) mavzuga yo'nalganlik;
- 2) tilga ixtisoslashganlik;
- 3) muvaqqat orientatsiya;
- 4) foydalanish yo'nalishi (lug'at maqsadi);
- 5) manzil yo'nalishi (o'quvchi);
- 6) lug'atning vazifasi;
- 7) lug'at hajmi;
- 8) lug'at birliklari tavsiflangan til darajasi.

Ro'yxatdagi parametrlar qandaydir darajada mega-, makro-, media- va mikro strukturalarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun lug'atni qiyosiy tahlil qilishda keyingi omillar quyidagicha belgilanadi:

1. Mega struktura parametrlari (kirish qismi, "lug'atdan foydalanish tartibi" bo'limining mavjudligi, mavzu doirasining tavsifi, lug'atning asosiy qismi, turli ilovalar).
2. Makrotuzilma parametrlari, asosan, lug'at maqolasini shakllantirish va tartibga solish tamoyillarini tanlash bilan bog'liq.
3. Mikro struktura so'zlikning tanlash va tashkil etish bilan bog'liq parametrlar: 1) ro'yxatga olish; 2) rasmiy; 3) etimologik; 4) atributiv; 5) tavsiflash, izohlash; 6) assotsiativ; 7) pragmatik; 8) illyustrativ; 9) tipografik mikro struktura¹⁷.

Bu tasnifda oldingi ishlarda kuzatganimiz, "lug'atning medio strukturasi" haqidagi qaydga e'tibor qaratamiz. Lug'atning medio strukturasi havola usullari va vositalari tizimidir. Medio strukturaning yaxshi shakllantirishi termin va tushunchaning yanada ko'proq ma'lumot bilan ta'minlanishini ta'minlaydi, termin konteksti yanada kengayadi. Yaxshi ishlab chiqilgan medio struktura kitobxonga termin haqida nisbatan kengroq ma'lumot olish imkonini beradi. Har bir lug'at maqolasi oxirida u bilan bog'liq termin yoki nashrga havola berilishi buning asosiy omilidir. Masalan, "mif" maqolasida mazkur termin bilan aloqador 8 ta termin hamda 3 ta nashrga havola berilgan.

Quyida "lingvistik ensiklopedik lug'at"dagi lug'at maqolalari, ularning mikro va medio strukturacini tahlil qilamiz.

¹¹ Дубровина К.Н. Основные принципы создания «энциклопедического словаря библейских фразеологизмов» // <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-prinsipy-sozdaniya-entsiklopedicheskogo-slovarya-bibleyskih-frazeologizmov> (Мурожаат санаси: 29.07.2023.)

¹² Дубровина К.Н. Основные принципы создания «энциклопедического словаря библейских фразеологизмов» // <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-prinsipy-sozdaniya-entsiklopedicheskogo-slovarya-bibleyskih-frazeologizmov> (Мурожаат санаси: 29.07.2023.)

¹³ Жучкова Е.В. Энциклопедический тип словаря в современной русскоязычной терминологии // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/28006/1/sk_2014-04.pdf (Мурожаат санаси: 29.07.2023.)

¹⁴ Жучкова Е.В. Энциклопедический тип словаря в современной русскоязычной терминологии // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/28006/1/sk_2014-04.pdf (Мурожаат санаси: 29.07.2023.)

¹⁵ Цыренов Б.Д. Структура, типология и принципы семантизации в монголоязычно-русской лексикографии: автореф. диссер. докт. филол. наук. – Москва, 2017. – 45 с. – С. 39.

¹⁶ Цыренов Б.Д. Структура, типология и принципы семантизации в монголоязычно-русской лексикографии: автореф. диссер. докт. филол. наук. – Москва, 2017. – 45 с. – С. 30-31.

¹⁷ Жучкова Е.В. Энциклопедический тип словаря в современной русскоязычной терминологии // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/28006/1/sk_2014-04.pdf (Мурожаат санаси: 29.07.2023.)

Актант

(от лат. ago – привожу в движение, действую) – любой член предложения, обозначающий лицо, предмет, участвующий в процессе, обозначенном глаголом. Родовое понятие «актант» существенно для вербоцентрической теории предложения. Л.Теньер, введший понятие «актант», противопоставлял актанты (существа и предметы, участвующие в той или иной мере в процессе) сирконстантам, указывающим на время, место, образ действия и другие обстоятельства процесса. Он различал три актанта: первый, второй и третий, соответствующие подлежащему, прямому дополнению (или агенту пассивного глагола) и косвенному дополнению. Различение актантов и сирконстантов у Теньера было нечётким, связывалось с предложно-падежной формой слова. В дальнейшем теория актантов шла по пути уточнения номенклатуры актантов, более точного разграничения актантов и сирконстантов и, что особенно важно для семантического синтаксиса, более чёткого противопоставления синтаксических и семантических актантов. В число актантов многие лингвисты стали включать любой субстантивный член предложения (дополнение орудия, обстоятельство места и пр.). В семантической теории синтаксиса различают семантические (реальные) актанты – отображение элементов ситуации (субъект, объект, адресат и т. п.), и синтаксические актанты – члены предложения (подлежащее, дополнения и т. п.). Актантная структура (конфигурация) предложения – число и характер актантов, обязательных для глагола. Различаются глаголы безактантные («Светает»), одноактантные («Петр спит») и др. В этом значении понятие актанта соотносительно с валентностью, местом или позицией (в грамматике, ориентированной на логику отношений), «падежом» (в падежной грамматике). Актантная трансформация – изменение соотношения между семантическими и синтаксическими актантами, например «Пётр отправил письмо Ивану» и «Иван получил письмо от Петра»: в первом случае адресат представлен как косвенное дополнение, во втором – как подлежащее. В качестве синтаксического актанта может быть представлен и несубстантивный элемент ситуации (действие): «Сражение продолжается».

В теории текста – типовая функция лица (предмета) в повествовании. Соотношения актантов образуют *актантную модель* повествования.

То же, что агент.

- Т е н ь е р Л., Основы структурного синтаксиса, пер. с франц., М., 1988;

G r e i m a s A. J., Sémantique structurale: recherche de méthode, P., 1966¹⁸.

Yuqorida keltirilgan lug'at maqolasidan ma'lum bo'ladiki, lingvistik termin – "aktant" bosh so'z sifatida ajratilgan, uning etimologiyasi haqida ma'lumot keltirilgan (от лат. ago – привожу в движение, действую). Mikro strukturada eng katta qismni mazkur termin haqidagi ensiklopedik ma'lumot tashkil etadi. E'tibor berilish kerak bo'lgan jihat mazkur atamaning "til nazariyasi"dagi o'rni alohida ko'rsatilib, terminning bu sohada tushunilishi alohida izohlangan. Mazkur lug'at maqolasidagi medio struktura lug'at maqolasi oxiridagi oхиridagi "То же, что агент" qismi tashkil qiladi. Demak, "aktant" termini haqida ko'proq ma'lumot olish uchun "agens" terminiga murojaat qilish kerak. Elektron ensiklopediyalarda bu yana ham oson: giper havola ustiga bosilganda, boshqa lug'at maqolasiga o'tiladi. Lug'at maqolasi oxiridagi bibliografiya ham medio strukturaning tarkibiga kiradi. K o'rinadiki, aksariyat lingvistikaga oid ensiklopediyalarda ensiklopedik tavsiflarning aksariyatida E.V.Juchkova ta'kidlagan tarkibiy qismlar mavjud.

МУХОКАМА

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvistik atamalar tizimi murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega. Har bir atama o'zining semantik yuklamasi, struktur shakli va funksional xususiyati bilan ajralib turadi. N.M. Shanskiy va A.Hojiyev tomonidan ilgari surilgan nazariy asoslar atamalarni tahlil qilishda muhim metodologik poydevor bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko'pgina lingvistik atamalar sinonimiya va polisemiya ega bo'lib, bu holat terminlarning aniq va yagona talqinini murakkablashtiradi. Ayniqsa, turli lingvistik maktablar va yondashuvlar bir atamaga turlicha

mazmun yuklaydi, bu esa terminologik tizimda izchillik muammosini yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy lingvistika uchun terminlarning standartlashuvi va ularning aniq tasnifi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Qolaversa, taqqoslamali tahlillar orqali atamalar o'rtnasidagi o'xshashlik va tafovutlar aniqlandi, bu esa lingvistik konsepsiyalarni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi. Muhokama jarayonida aniqlangan natijalar lingvistik atamalar tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari lingvistik atamalarni tavsiflash va tasniflash masalasida muayyan xulosalar chiqarishga imkon berdi. Avvalo, har bir lingvistik atama aniq semantik chegaraga ega bo'lishi va u o'zaro sinonimik munosabatlarda aniqlikni ta'minlashi zarur. Atamalarining struktur va semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni yagona me'yorga solish lingvistik terminologiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Tadqiqotda ta'kidlab o'tilganidek, mavjud terminlar o'rtnasidagi sinonimiya va polisemiyaning oldini olish uchun ularning izohlanishida bir xillik va aniq mezonlar bo'lishi lozim. Shuningdek, taqqoslamali tahlillar natijasida lingvistik atamalar tizimida mavjud bo'lgan tafovutlarni bartaraf etish va umumiy standartlarni ishlab chiqish zarurati ko'rsatib o'tildi. Ushbu xulosalar kelgusida lingvistik lug'atlarni tuzishda va ilmiy ishlar yozishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot lingvistik atamalar tizimini yanada mukammallashtirish va ularni amaliyotga to'g'ri tatbiq etish zarurligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М., 1972.
2. Адонина О.Д., Сиренов Б.Д. Терминоведение и терминография. – М., 1988.
3. ғаниев А. Адабий тил нормалари ва услуб. – Тошкент, 1980.
4. Аҳмедов А. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1976.
5. Радбил Ш. Очерки по лексикологии современного узбекского языка. – Ташкент, 1963.
6. Каюмов А. Лексикология ва фразеология. – Т., 1976.
7. Мадрохимов Н.М. Лингвистик атамаларнинг таснифи ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2004.
8. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1987.
9. Шарипов Х. Лексикология масалалари. – Т., 1987.
10. Назаров С.Н., Юсупов Ш.С. Ўзбек тилининг умумий лексикологияси. – Т., 2006.

¹⁸ <http://tapemark.narod.ru/les/022c.html> (murojaat sanasi 12.12.2023)